

BO’LAJAK PEDAGOGLARDA IJTIMOY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sayfullayeva Nazokat Xamidova

Sabrina Abduvahobovna.

¹Guliston davlat pedagogika instituti, Tillarni o’qitish fakulteti, O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi E-mail

² Fan o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292165>

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of developing socio-communicative competencies in future teachers, as well as their theoretical and practical aspects. The role of communicative competencies in modern education and effective methods of their development are also discussed.

Keywords: socio-communicative competencies, communicative competencies, pedagogical activity, educational process, future teacher, modern education

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы развития социально-коммуникативных компетенций у будущих педагогов а также их теоретические и практические аспекты. Освещается роль коммуникативных компетенций в современной системе образования и эффективные методы их формирования.

Kalit so’zlar: ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik faoliyat, ta’lim jarayoni, bo’lajak pedagog, zamonaviy ta’lim.

Annotatsiya: This article analyzes the pedagogical foundations of developing socio-communicative competencies in future teachers, as well as their theoretical and practical aspects. The role of communicative competencies in modern education and effective methods of their development are also discussed. Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы развития социально-коммуникативных компетенций у будущих педагогов а также их теоретические и практические аспекты. Освещается роль коммуникативных компетенций в современной системе образования и эффективные методы их формирования. Kalit so’zlar: ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik faoliyat, ta’lim jarayoni, bo’lajak pedagog, zamonaviy ta’lim. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta’lim tizimiga qo’yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat chuqur bilimga ega bo’lishi, balki samarali muloqot qila olishi, jamoa bilan ishlashi, o’quvchilar bilan psixologik jihatdan to’g’ri munosabat o’rnata bilishi ham muhim hisoblanadi. Shu sababli bo’lajak pedagoglarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi. Mamlakatimizda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4884-sonli qarori 4-bandiga ko’ra: “Maktabgacha, umumiy o’rta professional va oliy ta’lim o’quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” vazifasi belgilandi. O’zbekiston Respublikasida zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni aynan tarbiya olayotgan muhitida uning subyektiv o’z-o’zini anglashi jarayonida uning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish vazifasi yetakchi vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday masalani hal qilish zaruriyatini rasmiy organlar tomonidan ta’lim muassasalariga yuklatilgan missiya va jamiyatning taxminlari bilan belgilanadi, bu esa

fuqarolarning ta'lim olish jarayonida ijtimoiy vakolatlarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni belgilaydi. Shunday ekan, V.N.Kunitsina ijtimoiy kompetentlikning quyidagi turlarini belgilaydi: verbal kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; ijtimoiy-psixologik kompetentlik; o'zini-o'zi identifikatsiya qilish (ego-kompetentlik). 1996-yilda Yevropa Kengashi tomonidan Bernda o'tkazilgan “Evropa uchun tayanch kompetensiyalar” simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetensiyalari aniqlandi. Bular: siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (o'ziga javobgarlikni olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni zo'ravonliksiz hal qila olish); ko'p millatli jamiyatda yashash kompetensiyalari (tafovutlarni ehtirossiz qabul qilish, o'zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatga kirishish); bir va undan ortiq tilda og'zaki va yozma muloqot qila olish; axborotlashgan jamiyatda yashash kompetensiyalari (yangi texnologiyalarni bilish, ularni qo'llay olish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumot, reklamalarga tanqidiy munosabatda bo'lish); butun hayoti davomida uzluksiz ta'limni kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil o'zini-o'zi o'qitish qobiliyati. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Onlayn platformalar, taqdimotlar va multimedia vositalari o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu kompetensiyalar pedagogning kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash hamda o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat chuqur bilimga ega bo'lishi, balki samarali muloqot qila olishi, jamoa bilan ishlashi, o'quvchilar bilan psixologik jihatdan to'g'ri munosabat o'rnatish ham muhim hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4884-sonli qarori 4-bandiga ko'ra: “Maktabgacha, umumiy o'rta professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash” vazifasi belgilandi. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni aynan tarbiya olayotgan muhitida uning subyektiv o'z-o'zini anglashi jarayonida uning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish vazifasi yetakchi vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday masalani hal qilish zaruriyatini rasmiy organlar tomonidan ta'lim muassasalariga yuklatilgan missiya va jamiyatning taxminlari bilan belgilanadi, bu esa fuqarolarning ta'lim olish jarayonida ijtimoiy vakolatlarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni belgilaydi.

Shunday ekan, V.N.Kunitsina ijtimoiy kompetentlikning quyidagi turlarini belgilaydi: verbal kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; ijtimoiy-psixologik kompetentlik; o'zini-o'zi identifikatsiya qilish (ego-kompetentlik).

1996-yilda Yevropa Kengashi tomonidan Bernda o'tkazilgan “Evropa uchun tayanch kompetensiyalar” simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetensiyalari aniqlandi. Bular: siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (o'ziga javobgarlikni olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni zo'ravonliksiz hal qila olish); ko'p millatli jamiyatda yashash kompetensiyalari (tafovutlarni ehtirossiz qabul qilish, o'zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatga kirishish); bir va undan ortiq tilda og'zaki va yozma muloqot qila olish; axborotlashgan jamiyatda yashash kompetensiyalari (yangi

texnologiyalarni bilish, ularni qo'llay olish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumot, reklamalarga tanqidiy munosabatda bo'lish); butun hayoti davomida uzluksiz ta'limni kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil o'zini-o'zi o'qitish qobiliyati.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Onlayn platformalar, taqdimotlar va multimedia vositalari o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

XULOSA

qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu kompetensiyalar pedagogning kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash hamda o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori.
2. I.V.Chuprov, A.Y.Zubok, K.Uilyams. Xavfli jamiyatda yoshlar.-M.Nauka, 2013.-P.
3. OECD Reviews of Evaluation and Assessment in Education "Synergies for Better Learning". OECD publishing, PARIS CEDEC.2013. 148-p
4. N.Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"-Toshkent, 2018.